

## ASQAD MUXTORNING “DAVR MENING TAQDIRIMDA” ROMANIDA BADIY PSIXOLOGIZM

**Oybek Buxor o‘g‘li Mamataliyev**

O‘zMU, jurnalistika fakulteti adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyot  
yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada atoqli yozuvchi Asqad Muxtorning “Davr mening taqdirimda” romanidagi badiiy psixologizm elementlari qamrovga olinib, adibning badiiy psixo-logizm orqali xarakter yaratish, syujet liniyasini belgilash mahorati, badiiy psixologizmning asar mohiyatini ochishdagi o‘rni masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Asardagi badiiy psixologizmn unsurlarining obrazlar tizmini belgilashda-gi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** asar mohiyati, obrazlar tizimi, syujet, xarakter, badiiy psixologizm, qahramon ruhiyati.

Badiiy adabiyotning ilk tasvir usullariga nazar tashlaydigan bo’lsak, adabiy qahramonlarning xatti-harakatlarini asosan tashqi muhit ta’siri belgilab bergenligiga guvoh bo’lamiz. Voqealar rivojini uyushtiruvchi ziddiyatlar asosan qahramonlarning zohiriy olamida sodir bo’ladi. Zamonlar o’tishi bilan hayot mohiyati, insoniyatning orzu-umidlari, tafakkuri o‘zgarib borar ekan, bu o‘zgarishlar asarlarga ham ko’chib o’tdi. Mukammallahgan hayot haqiqati badiiy haqiqatga aylantirildi. Shu tariqa insonning o‘zini anglashga urinishi, o‘zining ichki olamiga savollar bilan murojaat qilishi badiiy adabiyotda badiiy psixologizm tushunchasining paydo bo’lishiga sabab bo’ldi. Endi chuqr psixologik tahlilga asoslangan badiiy asarlarda adabiy qahramonlarning xatti-harakatlarini asosan tashqi muhit emas, uning ichki olami boshqarib,

o‘zgartirib turishi tasvirlana boshladi. Bu badiiy unsur badiiy psixologizm nomi bilan atala boshladi.

O‘zbek adabiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Asqad Muxtor badiiy psixologizmdan o‘ziga xos tarzda mahorat bilan foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, bu jihat ayniqsa, “Davr mening taqdirimda” asarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu asarning mohiyatini ifodalashda, voqelikni aks ettirishda badiiy psixologizmning o‘rni beqiyos. Asarning muqaddimasi sifatida prolog shunday boshlanadi:

“Baxt-saodatni o‘ylayman. Ko‘p adibi rasolar o‘z kitoblarini baxt to‘g‘risidagi mulohazalardan boshlashgan.

...Shuncha umr ko‘rib, bu haqda astoydil o‘yga tolmagan edim. Bugun yuvina turib toshoynaga ko‘zim tushdi-yu o‘z chehramga uzoq termilib qoldim: xo‘sh, umr o‘tib qolibdi, baxt-chi, baxtiyor bo‘ldikmi?”

Mazkur adabiy parcha asarning butun syujet tizimini “nazorat qiladi”. Yozuvchi tugunni berishda badiiy psixologizmdan mohirona foydalana olgan. Butun asar mana yuqorida keltirilgan adabiy qahramoning kechinmalari, savollari atrofida foydalanadi. Boshqa bir o‘rinda esa Adib asardagi epizodlardan biri bo‘lgan Fozilning butun hayotiy prinsiplari, dunyoqarashi, hayotga va jamiyatga munosabati, tanlagan yo‘li va xarakteri-ni birgina lavha orqali ochib beradi.

“Oltinchi avtobusning yordami bilan injener bo‘ladigan bo‘ldim, -dedi Fozil kulmasdan. – Hujjatlarimni topshirgani universitetga ketayotganimda, adashib, ikki os-tanovka beriroqda tushib qolibman.

Tuturiqsizning hazili qaysi, chini qaysi - bilib bo‘lmaydi. Yashashni qandaydir bir chalkashlik deb biladi. Dam bizdan norozi, dam o‘zidan”. Yuqorida keltirilgan epizodda adib bosh qahramon Ahmadning kechinmalari orqali ham Fozilning ham Ahmadning xarakterini yorqin aks ettiradi. Mazkur detal orqali biz asardagi obrazlar va syujet liniyasi haqida ham aniq tasavvurga ega bo‘lamiz. Mana shu o‘rinda asar qahramonlari ikkiga bo‘linadi: Fozil kabi o‘zini hayot oqimiga topshirib qo‘ygan obrazlar va Ahmad kabi o‘z qismatining markazida jamiyatni ko‘radigan

kurashuvchan obrazlar. Fozilning hatto universitet tanlashga ham qiziqmay, jamiyatning ertasiga befarq qarashi Ahmadning psixologik tasviri bilan to‘laligicha olib berilgan. Yoki boshqa bir o‘rinda Ahmadning qalbida quyidagicha fikrlar o‘tadi:

“Beshikdagi go‘dak jilmayardi. Mana shu go‘dak men ekanman. Jilmayganim rost bo‘lsa kechir, oyijon! O‘sha tuni otam tog‘da, balki mana shu jilmayishim uchun jon bergandir”. Mazkur psixologik tasvir orqali adib bosh qahramon-ning ma’naviy qiyofasini chizadi. Muallif buni ochiq-oydin aytib qo‘ymaydi. O‘z qahra-moniga qandaydir qahramonlik vaziyati ham yaratib bermaydi. Shunchaki uning kechinmalarini tasvirlash, ya’ni badiiy psixologizm vositasida bosh qahramon Ahmadning otasidan, umuman tinchlik uchun kurashgan jamiyki odamlardan qarzdorlik va onaga nisbatan hamdardlik tuyg‘ularini aks ettiradi. Demak, Ahmad Fozil kabi har bir narsani tasodifga yo‘yuvchi, hayotga yengil qarovchi inson emas. Bu obraz hamisha mulohaza yuritadi. Muntazam ravishda kechinmalar o‘rtasidagi kurashda yashaydigan, hatto otasi halok bo‘lgan chog‘da beshikda jilmayib yotgani uchun ham onasidan uzr so‘raydigan inson.

Asqad Muxtor romandagi voqealar rivojini asar davomida o‘sib boruvchi obrazlar atrofiga qurgan. Masalan, bosh qahramon Ahmad ham shunday obrazlardan biri. Romanning muqaddimasi bilan tanishar ekanmiz, u bizda biroz havoyi, yengiltak, real hayotdan ancha olisdagi mo‘rt yigit sifatida taasurot qoldiradi. Biroq u ko‘z o‘ngizmida ulg‘ayib, jismi ham tafakkuri ham toblanib, ma’naviy olami ham kengayib boraveradi. Madali Qosimov bilan bahslashib yurgan kunlarida u o‘zining ruhiyatida quyidagicha o‘zgarishni payqab qoladi va bu o‘zgarishlar syujet tizimini ham boshqa o‘zanga burib yuboradi:

“Madali Qosimov. Men negadir o‘zimni shu kishi oldida oqlashga urinar edim. Undan nima qarzim bor, bilmayman. Hayotning u aytganday chalkash, mushkul, Shafqat-siz emasligini isbot qilib, shu kishiga dashnom bergim kelardi”.

Mazkur parchadan anglashiladigan jihat shuki, Ahmad hayot haqidagi, baxt haqidagi fikrlari uning fikriga zid bo‘lgan odamlar bilan jiddiy bahsga kirishgan.

Biroq negadir ular emas, aynan Ahmad o‘zini oqlashga urinmoqda. Odatda fikrlari puchga ay-lanayotgan inson nimanidir isbotlashga tirishadi. Demak, bu parchada Ahmadning hali ijodkorning estetik ideali darajasiga ko‘tarilib ulgurmagan g‘o‘r obraz ekanligiga ishora bor.

Umuman olganda, mazkur romanda badiiy psixologizmning yusak namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Albatta, birgina ilmiy maqolada bu mavzuni qamrab olish imkonsiz. Demak, Asqad Muxtor mazkur asari orqali badiiy pisixologimni bir necha pog‘ona yuksaltira olgan, deb ayta olamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Davr mening taqdirimda: roman/ A.Muxtor. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1979, 384 b.
2. Badiiy psixologizm va uning ilmiy-nazariy kriteriyalari: diss. Tangirov R. “Science and innovation” jurnali. 2022. 241 b.